

## MILLIY XOSLANGAN LEKSIK BIRLIKLARNI SEMANTIK TEGGLASH TAMOYILLARI

Yorkulov Zafarjon Bakirovich

**mustaqil tadqiqodchi**

Ёркулов Зафаржон Бакирович

**независимый исследователь**

Yorkulov Zafarjon Bakirovich

**independent researcher**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21913490>

Milliy xoslangan lisoniy birliklar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odatlar, an'analari, ijtimoiy munosabatlari hamda milliy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi til birliklaridir. Ularning semantik ko'lami umumxalq leksikasidan farqli ravishda muayyan etnomadaniy muhit bilan shartlanadi. Ushbu birliklarni semantik tasniflashda lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, tarkibidagi milliy-madaniy sema, nominatsiya qilinayotgan predmet yoki hodisaning xalq hayotidagi o'rni va qo'llanish konteksti ham hisobga olinadi. Ma'no tasnifi milliy-madaniy mazmunni ochib berish hamda korpusda maxsus teglar yordamida annotatsiyalash uchun muhim nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Lisoniy birliklarni semantik tasniflashda komponent tahlili, semantik guruhlash, kontekstual tahlil va lingvomadaniy yondashuvdan foydalanish mumkin. Komponent tahlili orqali birliklarning umumiy lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ravishda milliy-madaniy semantik komponentlari aniqlanadi. Kontekstual tahlil usuli birlikning muayyan nutqiy vaziyatda qanday ma'noda qo'llanganini belgilash imkonini beradi. Lingvomadaniy yondashuv asosida esa leksema yoki frazeologik birlik va xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi orasidafi aloqa aniqlanadi.<sup>1</sup> Shu metodologiya asosida milliy xoslangan birliklarni moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat bilan bog'liq semantik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq.

### Milliy xoslangan leksik birliklarning ma'no tasnifi

|                                    |                                                   |
|------------------------------------|---------------------------------------------------|
| <b>Milliy taom va oziq-ovqat</b> → | <i>palov, sumalak, norin, qurut</i>               |
| <b>Kiyim-kechak va bezak</b> →     | <i>do'ppi, chopon, atlas, adras, mahsi</i>        |
| <b>Marosim va urf-odatlar</b> →    | <i>beshik to'yi, kelin salom, sunnat to'yi</i>    |
| <b>Ijtimoiy munosabatlar</b> →     | <i>quda, pochcha, yanga, ovsin, boja</i>          |
| <b>Uy-ro'zg'or buyumlari</b> →     | <i>supa, sandiq, xontaxta, dasturxon, oftoba,</i> |
| <b>Me'morchilik</b> →              | <i>mahalla, hovli, ayvon, guzar, supa</i>         |
| <b>Kasb-hunar</b> →                | <i>do'ppido'z, zardo'z, kulol, misgar, baxshi</i> |
| <b>Diniy tushunchalar</b> →        | <i>hayit, iftor, saharlik, taroveh, zakot</i>     |
| <b>Axloqiy tushunchalar</b> →      | <i>andisha, oriyat, nomus, ibo, hayo, oqibat</i>  |
| <b>Musiq va folklor</b> →          | <i>maqom, lapar, yalla, alla, doston, baxshi</i>  |
| <b>Ma'muriy tushunchalar</b> →     | <i>mahalla, oqsoqol, bek, mirshab, guzar</i>      |
| <b>Vaqt va taqvim</b> →            | <i>navro'z, muchal, chilla</i>                    |

Semantik jihatdan milliy xoslangan lisoniy birliklarning asosiy guruhlarini milliy taom va oziq-ovqat nomlari, kiyim-kechak va bezak buyumlari, marosim va urf-odatlar, qarindoshlik va

<sup>1</sup>Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 285 b; Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 112 b; Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020; Suyunov B. O'zbek tili lakunar birliklari semantikasi va tezaurusi. – Toshkent, 2024.

ijtimoiy munosabatlar, uy-ro'zg'or buyumlari, me'morchilik va kasb-hunar, diniy qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, musiqa, folklor, ma'muriyat, vaqt va taqvim mazmuniga ega birliklar tashkil etadi. Leksik birliklarning semantik tasnifida ayrim birliklar bir vaqtning o'zida bir necha guruhga mansubligini ham hisobga olish zarur. Masalan, *navro'z* birligi vaqt va taqvim mazmuni bilan birga milliy bayram, marosim, urf-odat ma'nolarini ham o'zida mujassam etadi. *Sumalak* milliy taom nomi bo'lishi bilan birga *navro'z* bayrami bilan bog'liq marosim va qadriyat ma'nosiga ham ega. Korpus annotatsiyasida bunday birliklar uchun asosiy va qo'shimcha teglarni ajratish maqsadga muvofiq bo'lib, bu yondashuv birlikning semantik ko'lamini to'liqroq aks ettirish imkonini beradi.

#### Bir necha semantik guruhlariga mansub leksik birliklarning teglanishi

| Birlik                | Asosiy teg          | Qo'shimcha teg                                     | Izoh                                                                                           |
|-----------------------|---------------------|----------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Navro'z</b>        | VAQT_TAQVI<br>M     | BAYRAM, MAROSI<br>M, URF_ODAT, QA<br>DRIYAT        | Muayyan taqvimiy davrni bildirishi bilan birga milliy bayram ma'nosini ifodalaydi.             |
| <b>Sumalak</b>        | MILLIY_TAO<br>M     | NAVRO'Z, MAROSI<br>M,<br>QADRIYAT                  | Taom nomi bo'lishi bilan birga navro'z an'anasi va jamoaviy marosim va qadriyat mazmuniga ega. |
| <b>Dasturxo<br/>n</b> | UY_RO'ZG'OR         | MEHMONDO'STLI<br>K,<br>MAROSIM, QADRIY<br>AT       | Uy ro'zg'or buyumi mehmondo'stlik va marosim atributi ma'nosini ham ifodalaydi.                |
| <b>Mahalla</b>        | IJTIMOY_TU<br>ZILMA | MA'MURIYAT, IJTI<br>MOY<br>MUNOSABAT, QAD<br>RIYAT | Hududiy-ma'muriy birlik nomidan tashqari, qo'shniqlik qadriyatlari ma'nosiga ega.              |
| <b>Hayit</b>          | DINIY_QADRI<br>YAT  | BAYRAM, MAROSI<br>M, URF_ODAT                      | Diniy mazmun bilan birga to'y va ma'raka mehmondorchiligi ma'nosiga ega.                       |
| <b>Hashar</b>         | URF_ODAT            | IJTIMOY_MUNOSA<br>BAT, QADRIYAT, J<br>AMOAVIYLIK   | Jamoaviy mehnat shakli sifatida o'zaro yordam va hamjihatlik qadriyatlarini ifodalaydi.        |

Milliy xoslangan birliklarning semantik tasnifi predmet yoki hodisani nomlash xususiyati bilan birga o'sha nom ortida turgan milliy-madaniy bilim va tajribaga asoslanishi lozim. Birlikning milliy xoslanganligini aniqlashda uning boshqa tillardagi muqobili mavjud yoki mavjud emasligi yagona mezon bo'la olmaydi. Asosiy e'tibor birlikning muayyan xalq madaniyatiga xos referentni ifodalashi, milliy-madaniy semaga ega bo'lishi va amaldagi nutq jarayonida shu mazmunni voqelantirishiga qaratiladi. Masalan, *dasturxon* leksemasi o'zbek madaniyatida mehmondo'stlik, birgalikda ovqatlanish va marosimiy munosabatlar bilan bog'liq qo'shimcha semalarni ifodalashi mumkin. Xuddi shuningdek, *mahalla* birligi hududiy birlik nomidan tashqari, o'zbek jamiyatiga xos ijtimoiy hamjamiyat va o'zaro munosabatlar tizimini anglatishi bilan milliy-madaniy mazmun kasb etadi.

Demak, milliy xoslangan lisoniy birliklarning semantik tasnifi ularning moddiy va ma'naviy madaniyatning turli jihatlarini aks ettirishiga asoslanaib, milliy taom, kiyim-kechak, marosim, qarindoshlik, uy-ro'zg'or, kasb-hunar, diniy tushunchalar, qadriyatlar, folklor va ijtimoiy munosabatlar kabi semantik guruhlarni qamrab oladi. Ushbu tasnif milliy xoslangan birliklarning semantik tabiatini izchil ochib berish bilan birga, ularni elektron korpusda tizimli ravishda teglash, qidirish va statistik tahlil qilish imkonini yaratadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 285 b.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 112 b.
3. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Suyunov B. O'zbek tili lakunar birliklari semantikasi va tezaurusi. – Toshkent, 2024.